

Information Technologies and Systems in The Banking Financial System

Dilfuza Erkinovna Ishankhodjaeva

Acting Associate Professor of the Department of “Electronic Commerce and
Digital Economy” Tashkent Financial Institute

Abstract

This article is devoted to the relevance of the digitalization of the country's economy, the need to change the traditional and some outdated aspects of the economy. The article is devoted to the digital development of the country's economy, with a special focus on the digitalization of the banking sector. The study presents the positive and negative consequences of this type of modernization. The purpose of the study is to assess the importance of digital transformation for the country's economy.

Keywords: digitalization, FinTech, digital economy, banking sector, technologies.

Kirish

Hozirgi kunda iqtisodiyotning globallashuvi va axborot texnologiyalarining rivojlanishi sharoitida, iqtisodiyotni raqamlashtirish bilan bog‘liq jarayonlarni yangi bosqichga o‘tkazish masalalari dolzarb bo‘lib turibdi. Raqamli iqtisodiyot konsepsiyasi XX asrning oxirlarida ishlab chiqilganligiga qaramay, bu jarayonlar oxirgi 5-7 yillikda amalga oshirila boshladi.

Ta’kidlab o‘tish kerakki, zamonaviy iqtisodiyotda an’anaviy usullardan foydalanish uning o‘shishiga tub yordam bera olmaydi va aksincha raqamli iqtisodiyot esa, mamlakatga jahondagi rivojlangan mamlakatlar qatoridan joy olishiga imkon beradi. Bu esa raqamli iqtisodiyotni yaxlit holatda joriy etish orqali iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga yangi zamonaviy axborot texnologiyalarini samarali tatbiq etish mumkinligini anglatadi.

Prezidentimiz ta’kidlaganidek, “Afsuski, bank tizimiraqamli texnologiyalarni qo‘llash, yangi bank mahsulotlarini joriy etish vadasturiy ta’minotlar bo‘yicha zamon talablaridan 10-15 yil orqada qolmoqda”

Mamlakatimiz uchun hozirgi iqtisodiy tizimni zamonaviy “raqamli”ga qayta qurish, ya’ni iqtisodiyotning raqamli transformatsiyasini amalga oshirish juda muhim hisoblanadi. Aks holda, jahondagi iqtisodiy keskinlikning kuchayishi, global inqirozlar ta’siri kuchayishi natijasida, mamlakatdagi iqtisodiy vaziyatga salbiy ta’sir qilib, yetakchi mamlakatlardan texnologik farqni yanada oshirishi mumkin.

Bugungi kunga kelib, raqamli transformatsiya global miqyosda ham, iqtisodiyotda ham, alohida korxonalar darajasida ham amalga oshirib kelinmoqda. Ushbu jarayonni o‘rganish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri, chunki kompaniyalarda ichki texnologik jarayonlarda innovatsion texnologiyalar qo‘llanadi va biznes modellarining raqamli transformatsiyasi amalga oshiriladi, raqobatbardoshlikni oshirish va bozorda yetakchilikni saqlab qolish uchun boshqaruv tuzilmasi optimallashtirilmoqda

Shu munosabat bilan mamlakat moliya tizimining markazida turuvchi bank tizimini raqamlashtirish asosida ularning faoliyatini takomillashtirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Adabiyotlar tahlili. Xorijiy olimlardan T.Ablyazov va V.Asaul bank tizimining ish samaradorligini ta'minlash uchun raqamli texnologiyalarni keng joriy qilish lozimligini ta'kidlaydilar[3]. Innovatsion iqtisodiyotda doimiy ravishda innovatsion texnologiyalarni takomillashtirib borish, bu orqali butun iqtisodiyotni raqamlashtirishga o'zgartirish birinchi galdagi vazifadir.

Bugungi kunda axborot texnologiyalarning rivojlanib borishi global raqobat davrida tijorat banklarining barqarorligini ta'minlash uchun munosib hissa qo'shmoqda.

Tadqiqotchi N.Sharipovaning fikricha, raqamli transformatsiya jarayoni ma'lum bankning talab va xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan raqamli strategiya asosida amalga oshirilishi kerak[5]. Bunday strategiyaning amaliyotga joriy qilinishi alohida bankning, natijada butun bank tizimining faoliyati samaradorligini oshirishga olib keladi.

Shuningdek, M.Tangishov tadbirkorlar tijorat banklari tomonidan tezkor, sifatli, arzon va xavfsiz to'lovlarni amalga oshirilishini xohlashlarini e'tiborga olib, tijorat banklari faoliyatida bank mahsulotlari va sifatini oshirishni innovatsion yondashuv asosida tashkil etishni e'tirof etadi.

Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bugungi kunda tijorat banklarining yangi mahsulot va yangi innovatsion xizmatlariga talabni yanada oshirishni taqozo etadi. Shuning uchun raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklari strategik rivojlanishning asosiy yo'nalishi sifatida bank mahsulot va xizmatlarini ishlab chiqishga e'tibor qaratish lozimligi ta'kidlanadi

P.Gargning fikricha, moliyaviy sektorga raqamli texnologiyalarni joriy qilish ahamiyati shunchalik muhimki, u shunchaki kompaniya ning qiymatini oshirmaydi, shu bilan birga, mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini oshiradi va vaqtini iqtisod qilishga yordam beradi

Sh.Abdullaevaning fikricha, telekommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi, internet tarmog'i kengayishi, qulay interfeysga ega raqamli bankingni joriy etish, elektron bank xizmatlarini ko'rsatishda foydalanish banklar o'rtasida mijozlarni jalb qilish, ularga elektron bank xizmatlarini ko'rsatish sohasida raqobat shakllanishiga asos bo'lmoqda

Bir qator tadqiqotchilar raqamli bankingda moliyaviy texnologiyalarni joriy qilish katta hajmdagi ma'lumotlarni shakllantirish va saqlash, ularning tahlil qilish va natijalarni joriy qilishni tashkil qilgan holda investitsion va kreditlar bo'yicha samarali qarorlarni qabul qilishda qo'l kelishini e'tirof etadilar [10]. Tadqiqotchi O.Melikov tomonidan bank sohasida zamonaviy raqamli axborot texnologiyalari va ularning dasturiy ta'minotlaridan foydalanish nafaqat bank xizmatlari bozorida raqobat ustunligini beradi, balki, ma'muriy xarajatlarni kamaytirish, mehnat unumdorligini oshirish, ortiqcha vaqt sarfini kamaytirish kabi ijobiy ta'sirlari ham mavjudligi e'tirof etiladi.

A.L.Gulyamova jahon bank tizimi bilan respublikamiz banklarining o'zaro integratsiyasi kuchayishining hozirgi bosqichi kredit tashkilotlarining mijozlarga xizmat ko'rsatish jarayonlarini raqamli transformatsiyasini amalga oshirish bilan uzviy bog'liqligi, banklarimiz raqamli modeli mohiyatini amaliyotga tatbiq qilishga alohida e'tibor berishlari lozimligini ko'rsatadi, deya ta'kidlaydi [12]. Umuman, raqamli texnologiyalar vositasida bank tizimini

rivojlantirish borasida keng ishlar amalga oshirilmagan. Mavjud adabiyotlarda bank tizimini raqamlashtirish, ularda bank innovatsiyalarini joriy qilish borasida fikrlar sayozligicha qolmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda statistik jadvallar va analitik taqqoslash, mantiqiy va taqqoslama tahlil, guruhlash usullari hamda mavzuga oid xorijiy va mahalliy olimlarning tadqiqot ishlaridan keng foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Dastlab, jahon iqtisodiyotini yurib turuvchi, oltin-valyuta oqimlarini nazorat qiluvchi bank sektorida raqamli texnologiyalarni joriy qilish boshlandi. Bu esa, iqtisodiyotining muhim elementi bo'lgan moliya sektori bugungi kunda raqamlashtirish jarayonida, xususan, moliyaviy texnologiyalarida ilg'or yechimlarni topishga imkon yaratadi. Moliya sohasidagi innovatsiyalar mijozlarga arzonroq narxlarda, individual moslashtirilgan xizmat ko'rsatish orqali moliyaviy holatini yaxshilashga qaratilgan bo'ladi.

Tahlillar ko'rsatadiki, bank tizimini moliyaviy texnologiyalar yordamida modernizatsiya qilish quyidagi imkoniyatlarni beradi:

- smartfon yoki kompyuterdagi ilova orqali masofadan boshqarish tizimlaridan foydalanish;
- kapitalni elektron hamyonlarda saqlash;
- kriptovalyutadan moliyaviy vosita sifatida foydalanish;
- qarz oluvchi to'g'risidagi ma'lumotlarni tezda qayta ishlash, uning to'lov qobiliyatini baholash va h.k.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, moliyaviy texnologiya (fintech) pul-kredit sohalarida qo'llaniluvchi barcha an'anaviy usullarni zamonaviy usullarga o'zgartira oladigan texnologiya sifatida e'tirof etish mumkin.

Bank tizimida raqamli masofaviy bank xizmatlarining rivojlanishi, birinchi navbatda, aholi turmush tarzi o'zgarishi, yangi axborot texnologiyalarining joriy etilishi va bank operatsiyalarining avtomatlashtirilishi bilan bog'liq bo'ldi. Bank va mijoz o'rtasidagi munosabatlar bo'yicha an'anaviy va raqamli bank xizmatlari o'rtasida sezilarli farq mavjud emas. Mijozlarga bank tomonidan xizmat ko'rsatish zarurati saqlanib qolgan holda, faqatgina banklar va ularning mijozlarini o'zaro bog'lovchi aloqa kanallari o'zgardi, ya'ni ilgari mijoz bankga kelib bajaragan operatsiyalarni masofadan turib bajarish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Bugungi kunda bank xizmatlariga yangi innovatsion xizmat turlari raqamli to'lov, blokcheyn, masofadan xizmat ko'rsatish, internet banking qo'llashni yanada takomillashtirish dolzarb masala bo'lib qoladi. Moliya bozoriga FinTech kompaniyalarining kirib kelishi, bozorda raqobatning shakllanishi va banklarning rivojlanish strategiyasini tubdan o'zgartirishiga olib keladi. Odatda, banklar ommaviy iste'molchilarning ehtiyojlariga qarab o'z xizmatlarini taklif etadi, va aksincha fintex kompaniyalari esa individuallashtirilgan xizmatlarni yuqori narxlarda taklif qiladi. Ammo, bu iste'molchi toifasidagi farq, bir xil yo'nalishdagi raqobat kamayishiga olib kelishini anglatmaydi. Aksincha, bu sohani an'anaviy mahsulot va xizmatlardan voz kechib, yangi innovatsion xizmatlarni ishlab chiqishga undaydi. Jahondagi chakana bank yetakchi raqamli banklardagi xizmatlarini ko'rsatuvchi raqamli banklar va ularning mijozlari soni haqidagi ma'lumotlar 1-jadvalda keltirildi.

So'nggi vaqtlarda jahon iste'mol bozorida banklar bilan bir qatorda texnologik gigant sanaladigan Google, Facebooklarning moliyaviy xizmatlaridan foydalanish tendensiyasi

ortmoqda. Bluenotes iqtisodiy portali tahlillariga ko'ra, so'rovda qatnashganlarning 75 foizi (ularning aksariyati 1981-1996 yillarda tug'ilganlar) – innovatsion to'lov usullarini afzal ko'rishi va foydalanishini bildirgan[14]. Masalan, AQShning Amazon kompaniyasi, o'z ekotizimini rivojlantirishga erishgan va bu orqali dunyodagi eng texnologik ilg'or onlayn chakana sotuvchilardan biriga aylanishga muvaffaq bo'lgan. Birgina 2017 yilning o'zida, AQShdagi elektron-tijorat daromadlari oshishining 53 foizi aynan Amazon kompaniyasi daromadlarining oshishiga to'g'ri keladi. Shuningdek, Amazon Prime platformasini o'z ichiga olgan Amazon ekotizimi – xaridorlarga tovar va xizmatlar uchun bir zumda to'lash tizimini va sotuvchilar uchun darhol savdodan foyda olish imkonini beradi.

Bularning barchasi butun moliya tizimni rivojlantirish uchun asos sifatida xizmat qildi va natijada barcha banklar mijozlarga xizmat ko'rsatishni raqamli muhitga o'tkazishga harakat qilishmoqda. Natijada, bugungi kunga kelib, smartfon va boshqa mobil qurilmalar banklar va mijozlarning o'zaro hamkorlik qilishi doirasida asosiy vositaga aynlandi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, hamda statistik ma'lumotlarni tahlil qilgan holda, bank sektorini raqamlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan quyidagi bosqichlarni keltirib o'tishimiz mumkin. Birinchidan, Digital (raqamli) kanallarning paydo bo'lishi – yangi ekotizimning qurilishga hissa qo'shib, uning markazida joylashgan foydalanuvchiga bankomatlar tarmog'i, mobil banking, chat-botlardan foydalanish imkoniyatini yaratadi. Bunday tizim bank va uning mijoziga istalgan qulay vaqtda istalgan aloqa kanali orqali o'zaro muloqot qilish imkonini beradi.

Ikkinchidan, raqamli mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqilishi: kontaktsiz to'lovlar, elektron to'lovlar, elektron hamyonlar, Big Data. Zamonaviy ilg'or texnologiyalarning mavjudligi iste'molchilarning kun davomida moliyaviy ehtiyojlarini qondirish uchun mo'ljallangan Ye2E mahsulotlarini yaratishga imkon beradi. Uchinchi bosqich – axborot xizmatlarining to'liq siklini joriy etish. Ushbu qadam nafaqat an'anaviy mahsulotlarni modernizatsiyalash imkonini beradi, balki bankni global internet makoniga integratsiyalashuviga imkon beruvchi prinsipial jihatdan yangi biznes modeli paydo bo'lishiga imkon beradi.

To'rtinchi bosqich "Raqamli miya" (Digital Brain)ni yaratish bilan tavsiflanadi, ya'ni, u auditdan o'tkazish maqsadida iqtisodiyotning barcha segmentlarida ma'lumotlarni o'rganishni avtomatlashtirishga qaratilgan bo'lib, bu tashkilotga ma'lum bir sohada o'z imkoniyatlari haqida yaxshiroq tasavvurga ega bo'lish imkonini beradi. Oxirgi beshinchi bosqich – "Raqamli DNK" ning paydo bo'lishidir. Bunday tizim bank faoliyatining istalgan davrida rivojlanishning yangi vektorlarini ta'minlaydi, natijada yangi strategik qarorlar qabul qilish imkoniyatini yaratadi. Ammo, har qanday iqtisodiy jarayon kabi bank sektorini raqamlashtirish ham salbiy omillar va xavf-xatarlar bilan bog'liqdir. So'nggi yillarda moliya-kredit institutlarining axborot xavfsizligi masalasi dolzarb muommolardan biriga aylandi. Davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlovchi muhim elementlaridan biri sifatida, moliya sektori global tarmoqqa o'tish jarayonida juda ko'p xakerlar xujumiga duchor bo'lmoqda. Shu sababli, raqamli iqtisodiyotga o'tishdagi birinchi va dolzarb vazifalardan biri moliya-kredit tashkilotlari uchun yetarli darajadagi himoya tizimini ta'minlash kerakligini alohida qayd etish lozim. Navbatdagi xavf esa bu bank sektoridagi ishsizlikdir. Buning sabablari banklar sonining qisqarishi va asosiy bank amaliyotlarining avtomatlashtirilganligidir. Moliya

sektorining bunday rivojlanishi mamlakatda raqamli iqtisodiyotning beshta umumiy tendensiyasini shakllantirishga yordam beradi.

Aytish joizki, bank sektorini raqamlashtirishning bir qancha ijobiy tomonlari mavjud. Birinchidan, axborot texnologiyalarining faol joriy etilishi xodimlarning mehnat unumdorligini sezilarli darajada oshirishga yordam berdi. Ikkinchidan, iqtisodiy va ishlab chiqarish jarayonlarining inson omiliga bog'liqligini kamaytirdi, bu esa o'z navbatida, xato va kamchiliklar sonining keskin kamayishiga olib keldi. Uchinchidan, bu soliqqa tortish va moliyaviy nazorat tizimini osonlashtirdi, buning natijasida internetdagi elektron tijoratda bo'layotgan barcha operaatsiyalarni kuzatish imkoniyati paydo bo'ldi. Bu raqamli boshqaruvni rivojlantirishga harakat qilayotgan davlat uchun ma'lum bir rivojlanish vektorini belgilab berdi. Shu bilan birga, bu "Xufyona iqtisodiyot"dagi tadbirkorlik sub'ektlari sonini kamaytirish, firibgarlik sxemalarini oldini olish va tashkilotlar iqtisodiy jarayonlar "shaffofligini" ta'minlashga yordam beradi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, alohida iqtisodiy sektor misolida raqamlashtirish jarayoniga bir necha salbiy omillar ta'sir qilishiga qaramasdan turib, mamlakatning jahon internet makoniga integratsiyalashuvi, tubdan yangi tarmoq va yo'nalishlarni rivojlantirish yo'lida ijobiy o'sish tendensiyalariga egadir. Bu yo'lda asosiy kamchiliklardan biri bozorning globallashtirish va ko'plab korxonalarining "sinishi"ga olib keladigan yirik, bir martalik bitimlarning bo'lishi hisoblanadi. Bu esa mamlakatning kichik va o'rta biznesga tayanmasdan, iqtisodiyotni rivojlantirishning yangi imkoniyatlarini topishga majbur qiladi.

ur qiladi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida bank tizimini takomillashtirish uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

1. Bank tizimi rivojlanishining orqada qolayotganligini zamonaviy axborot texnologiyalar orqali to'ldirish va kadrlarni bank tizimi bo'yicha chetda malaka oshirishlarini ta'minlash lozim.
2. O'zbekistonda axborot-kommunikatsiya infratuzilmasi va biznes muhitiga mos bank tizimini yaratish lozim. Blokcheyn texnologiyalarining to'liq ishlashini ta'minlash uchun ular moliya bozoridagi boshqa ishtirokchilarning ham to'liq foydalanishlari zarur. Shuningdek, bank qonunchiligidagi cheklanishlarga olib kelayotgan holatlar bo'yicha o'zgarishlarni kiritish zarur.
3. Tijorat banklari faoliyatini shakllantirish borasida sarmoya yetarliligi va likvidligi, bankning aktiv operatsiyalarini oshirishini ta'minlash, mijozlar bazasini kengaytirish, mijoz va bank uchun optimal tariflarni ishlab chiqish, boshqaruv tizimini takomillashtirish va boshqa yo'nalishlarini takomillashtirish choralarni ko'rishi lozim.

Shunga qaramay, ta'kidlash kerakki, raqamlashtirish iqtisodiy o'sishga to'g'ridan-to'g'ri va doimiy ravishda o'sib borishiga ta'sir ko'rsatadi, yalpi ichki mahsulot dinamikasiga, shuningdek, iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi sub'ektlarning mahsuldorligi va barqarorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ayni damda, iqtisodiyotni raqamlashtirish darajasi mamlakatimizning jahon miqyosidagi o'rnini belgilab beradi. Aynan shu sababli, O'zbekiston iqtisodiyotini raqamlashtirish siyosatini takomillashtirish masalasi, agar mamlakat oldida raqobatbardoshlikni oshirish, mehnat samaradorligi va unumdorligini oshirish maqsadida tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

REFERENCES:

1. Джуманова, А. Б., Игамбердиева, К. Э. (2018). ПОСЛЕДСТВИЯ БЕЗРАБОТИЦЫ И ИХ ВЛИЯНИЕ НА РАЗВИТИЕ ЭКОНОМИКИ. Экономика и социум, 10, 243-245.
2. Джуманова, А. Б., Игамбердиева, К. Э. (2021). МЕХАНИЗМ ВЛИЯНИЯ АМОРТИЗАЦИОННОЙ ПОЛИТИКИ НА ПОКАЗАТЕЛИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ФИНАНСОВЫЕ РЕЗУЛЬТАТЫ РАБОТЫ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ТРАНСПОРТА. Экономика и социум, 9(88), 338-344.
3. ИГАМБЕРДИЕВА, КЭ (2022). РАЗВИТИЕ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН. Экономика и социум, 1(92), 576-579.
4. Igamberdieva, K. E. (2022). Internal Audit in Business Subjects: Goals, Objectives and Principles. International Journal of Innovative Research in Science Engineering and Technology (IJIRSET), 11(3), 2322-2330.
5. Игамбердиева, К. Э. (2022). ЗНАЧЕНИЕ ВНУТРЕННЕГО АУДИТА В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ. Экономика и социум, 3(94), 555-561.
6. ИГАМБЕРДИЕВА, КЭ (2021). ПРОБЛЕМА ВНЕДРЕНИЯ И ПРОВЕДЕНИЯ АУДИТА ФИНАНСОВЫХ РЕЗУЛЬТАТОВ ОРГАНИЗАЦИИ. Экономика и социум, 9, 555-561.
7. Игамбердиева, К. Э. (2020). БЮДЖЕТ ТАШКИЛОТЛАРИДА ҲИСОБ СИЁСАТИНИ ШАКЛЛАНТРИШНИНГ АМАЛИЙ ЖИҲАТЛАРИ. Бизнес Аудит Баҳо Мулк, 7(153), 14-17.
8. Игамбердиева, К. Э. (2020). Роль учёта и контроля строительных материалов в строительной организации железнодорожного транспорта треста Мостострой. Вестник Хорезмской академии Маъмуна, 12, 83-84.
9. Kadyrova, U. F., Matupaeva, Sh. Z. (2021). The Importance of Cluster Trends in Preparing Children with Disabilities for Inclusive Education. JournalNX, 1(1), 311-313.
10. Матупаева, Ш. З. (2019). Инновационные методы обучения в начальной школе. Гуманитарный трактат, (61), 81-83.
11. Abdusoliyev, A. I., Kushakova, M. N. (2021). Temir yo'l transportini rivojlantirishning moliyaviy siyosatining tahlili va tamoyillari. Экономика и социум, 9(88), 893-896.
12. Abdusoliyev, A. I., Kushakova, M. N. (2021). Moliyaviy menejment tizimini rivojlantirish tamoyllari. Oriental renaissance Innovative, educational, natural and social sciences, 1(9), 972-977.
13. Razzoqova, J. R., Qaxorov, M. X., Kushakova, M. N. (2021). Temir yo'l transportining moliyaviy boshqaruv tizimini takomillashtirish. Oriental renaissance Innovative, educational, natural and social sciences, 1(9), 978-986.
14. Kushakova, M. N. (2020). Main directions of credit policy during the COVID-19 PANDEMY. European Journal of Molecular & Clinical Medicine, 7(2), 1836-1839.
15. Kushakova, M. N. (2020). Financial planning problems in enterprises. EPRA International Journal of Economic Growth and Environmental Issues, 8(5), 20-21.
16. Dzhumanova, A. B., Kushakova, M. N., Khodzhaeva, N. A. (2019). Formation of accounting management information in the control system of enterprises of JSC

-
- «Uzbekistan Railways. International Journal of Advanced Science and Technology, 28(14), 32-36.
17. Кушакова, М. Н. (2022). Анализ и методология управления обслуживающего персонала железнодорожного транспорта в республике. Экономика и социум, 1(92), 593-596.
 18. Salimov, I. I., Kushakova, M. N. (2022). Analysis of the Problems of Innovative Development of the National Economy and Financial Stability of the Republic of Uzbekistan. International Journal of Innovative Research in Science Engineering and Technology, 11(2), 1603-1605.
 19. Kushakova, M. N. (2022). Increasing the Efficiency of Logistics Management in Railway Transport. ACADEMICIA An International Multidisciplinary Research Journal, 12(2), 342-346.
 20. Narimanovna, K. M., & Ikromovich, S. I. (2022). Improving the financial management system of rail transport. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(5), 646-653.
 21. Каримов, Б. (2021). Эффективность и формирование навыков ведения мяча правым и левым боком у юных баскетболистов в соревновательный период. Academic research in educational sciences, 2(4), 1818-1824.
 22. Каримов, Б. З. (2022). Оценка уровня физической подготовленности молодых баскетболистов-школьников 16-17 лет. Fan-Sportga, (2), 15-16.
 23. Каримов, Б. З. (2021). Результативность бросков в прыжке с поворотом вправо-влево с оценкой проявления ряда координационных показателей этих движений у юных баскетболистов. Fan-Sportga, (8), 27-29.
 24. Каримов, Б. З. (2020). Рақамли далиллар категориясининг илмий-назарий масалалари. Илмий мақола–Т.: TDYU Yuridik fanlar axborotnomasi–Вестник юридических наук–Review of Law Sciences, 5, 168.
 25. Каримов, Б. З. (2020). Основы критериев отбора юных баскетболистов узбекистана на этапе начальной подготовки. in физическое воспитание, спорт, физическая реабилитация и рекреация: проблемы и перспективы развития (pp. 210-212).